



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI TAHLIL QILISH USLUBIYOTI

Xakimov Tulkin Xalimovich

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ORCID: 0000-0001-7280-9981

Annotatsiya. Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish, sohada yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali mamlakat sanoatini xomashyo, aholini sifatli oziq - ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish uslubiyoti tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, korxonalar, salohiyat, iqtisodiy salohiyat, zahira, imkoniyat, bozor salohiyati, boshqaruv salohiyati, moliyaviy salohiyat, agrar siyosat.

МЕТОДИКА АНАЛИЗА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Хакимов Тулкин Халимович

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация. Повышение экономического потенциала сельско-хозяйственных предприятий, развитие производства продукции с высокой добавленной стоимостью в отрасли, обеспечение промышленности страны сырьем, населения качественными продуктами питания имеет важное значение на современном этапе экономических реформ. Исходя из этого, в данной статье анализируются методика анализа экономического потенциала сельскохозяйственных предприятий.

Ключевые слова: сельское хозяйство, предприятие, потенциал, экономический потенциал, резерв, возможность, рыночный потенциал, управленческий потенциал, финансовый потенциал, аграрная политика.

METHODOLOGY FOR ANALYZING THE ECONOMIC POTENTIAL OF AGRICULTURAL ENTERPRISES

Khakimov Tulkin Halimovich

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Abstract. Increasing the economic potential of agricultural enterprises, developing the production of high-value-added products in the industry, providing the country's industry with raw materials and the population with high-quality food products is important at the present stage of economic reforms. Based on this, this article analyzes the methodology for analyzing the economic potential of agricultural enterprises.

Keywords: agriculture, enterprise, potential, economic potential, reserve, opportunity, market potential, managerial potential, financial potential, agrarian policy.

Kirish.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlari shundan guvohlik beradiki, kishilik jamiyatining barcha soha va jabhalari, ayniqsa global iqlim o'zgarishi natijasida sayyoramizning ko'plab hududlarida keng avj olayotgan qashshoqlik va ocharchilikka barham berishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi, shuningdek, ularga turli yo'nalishlarda xizmat ko'rsatuvchi sub'yektlarning xo'jalik faoliyatini innovatsiyalar asosida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etgani holda, ushbu jarayonni uzluksiz takomillashtirish davr talabiga aylanib bormoqda.

Muhim strategik tarmoqlardan biri sifatida qishloq xo'jaligining vazifasi - mamlakatda, shuningdek, jahon miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Goldman Sachs xalqaro konsalting kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra, BMT 2050 yilga borib dunyo aholisi 9,8 mlrd. kishiga etishini, buning uchun oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 70 foizga oshirish kerakligini bashorat qilmoqda. BMT, XVJ, Jahon banki kabi bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar dunyoda oziq-ovqat inqirozi yanada chigallashishini, buning uchun qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, sohaga innovatsiyalarni izchil joriy etish, ilmiy-tadqiqotlarni yanada jonlantirish zarurligini ta'kidlashmoqda.

Zamonaviy sharoitda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarining joriy holatini monitoring qilish, mavjud resurslardan foydalanishni baholash va tahlil qilish, samarali boshqaruv echimlarini ishlab chiqish va amalga oshirish masalalari alohida dolzarb va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy korxonalar uchun eng dolzarb muammolardan biri – bu raqobatbardoshlik muhitida samarali faoliyat yuritish va o'zgaruvchan tashqi muhitga moslashishdan iboratdir.

Qishloq xo'jaligi korxonalar faoliyati samaradorligi muammolari ularning salohiyatidan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida qishloq xo'jaligi korxonasi salohiyati va uning yashirin zaxiralarini aniqlashni ko'zda tutadi. Qishloq xo'jaligi korxonasi iqtisodiy salohiyatini boshqarish strategik maqsadlarga erishish va bozorda barqaror faoliyat yuritishni ta'minlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Mazkur ilmiy maqolaning dolzarbligi hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi korxonasining iqtisodiy salohiyati va undan foydalanish samaradorligini tahlil qilish borasida yetarlicha uslubiy ta'minotning ishlab chiqilmaganligi bilan izohlanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "Moliyaviy salohiyat" tushunchasi keng ko'llanilib, davlat, hudud, korxonalar, uy xo'jaliklarining jami moliyaviy imkoniyatlarining rivojlanishi sifatida qaraladi.

Xususan, mahalliy iqtisodchi – olimlarimizdan Pardayev (2002) moliyaviy salohiyatni korxonalar nuqtai nazaridan uning faoliyatini to'liq ta'minlaydigan turli manbalardan tarkib topgan moliyaviy resurslar majmui sifatida ta'riflagan. Zulunova (2008) korxonalarining moliyaviy salohiyati deb, uning moliyaviy xo'jalik faoliyatini, ya'ni unda sodir bo'ladigan barcha iqtisodiy jarayonlarni to'liq ta'minlaydigan turli manbalardan (o'z mablag'lari va chetdan jalb qilingan mablag'lar, ya'ni majburiyatlar)dan tarkib topgan moliyaviy resurslar majmui sifatida tan olinadi (Zulunova, 2008).

Bunda moliyaviy salohiyatga oid barcha jarayonlar bir tomonlama qamrab olingan bo'lib, mikro darajadagi moliyaviy resurslar bilan tavsiflangan. Korxonalar moliyaviy salohiyat kategoriyasini Buranova (2020) shunday ta'kidlaydi: "Moliyaviy salohiyat – bu korxonaning o'z hususiy va jalb qilingan moliyaviy resurslari bo'lib, joriy va kelajakdagi harajatlarini tasarruf etishda o'zi haqlidir". Belorussiyalik mutaxassislar Plaksin va Poleshuk (2013) "Korxonaning moliyaviy – iqtisodiy salohiyatini uning tashkil etadigan komponentlar summasi sifatida emas, balkim, har qanday ishlab chiqarish tizimida bo'lganiday, murakkab, o'zaro bog'liq salohiyatlar tizimining elementlari yig'indisi sifatida e'tirof etganlar" (Plaksin, Poleshuk, 2013).

Yuqoridagilardan farqli ravishda, Suxova (2016) "Korxonalar moliyaviy salohiyati: tushunchasi, mazmuni, o'lchash usullari" nomli nashrida korxonalar moliyaviy salohiyatini "Korxonalar moliyasi" tushunchasi bilan bog'lab, iqtisodiy munosabatar tizimi sifatida korxonalar

moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ishlatilishi jarayonida paydo bo'lishini ifodalaydi" (Suxova, 2016).

Iqtisodiy salohiyatni xo'jalik yuritishning moddiy asosi sifatida tavsiflash asnosida Shukov (2002) iqtisodiy salohiyatning quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatadi: tabiiy - resurs; ekologik - iqtisodiy; ishlab chiqarish; innovatsion va ta'lim (intellektual); mehnat (kadrlar) salohiyati (Shukov, 2002).

Xasanov (2023) tahriri ostida chop qilingan "Moliya va soliqlar" darsligida korxonaning iqtisodiy salohiyati ishlab chiqarish, kadr, intellektual, moliyaviy, boshqaruv kabi tashkil etuvchilardan tarkib topishi ta'kidlab o'tiladi. Bunday tasniflash iqtisodiy salohiyatni tahlil qilishda korxonaning faoliyat ko'rsatishning tashqi shart-sharoitlari, resurslarning texnik-iqtisodiy tavsifi, korxonaning mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, xo'jalik yuritish usullari kabi omillarni guruhlash imkonini beradi (Xasanov va boshq., 2023).

Buxgalteriya sohasida mamlakatimizning ko'zga ko'ringan iqtisodchi olimlaridan biri Muxametov (2024) qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish kelgusida mahsulot tannarxini pasaytirish, sohada ishga solinmagan imkoniyatlarni aniqlash imkonini berishi haqida to'xtalib o'tadi, uning fikricha iqtisodiy salohiyatni tahlil korxonaning raqobatbardoshligini oshirishning muhim manbai hisoblanadi (Muxametov, 2024).

Rossiyalik mutaxassislar Kuzubov va Denisenkolar (2017) qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishda asosiy e'tiborni asosiy fondlardan foydalanish darajasiga qaratishni taklif qiladilar (Kuzubov, Denisenko, 2017).

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyati masalalari atroflicha o'rganilmaganligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish uslubiyotiga to'xtalamiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mahalliy va xorijiy olim va mutaxassislarning iqtisodiy tahlilni tashkil etish nazariyasi va amaliyoti, boshqaruv maqsadlarida moliyaviy ma'lumotlarni baholash uchun tahliliy amallarni bajarish va o'rganilayotgan muammo bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalarining tavsiyalaridan kelib chiqib mualliflik qarashlari ilgari suriladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy salohiyatining tashkil etuvchilarini aniqlashtirish maqsadida mazkur maqolada guruhlash, taqqoslash, grafik, omillarni tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini muvaffaqiyatli va samarali boshqarishni ta'minlash qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarishga malakali va muvozanatli yondashuvni talab qiladi, bu asosan ishlab chiqarish jarayonlari va operatsiyalari natijalarini tahlil qilish qobiliyati bilan belgilanadi.

Iqtisodiyot fanida o'rganilayotgan ko'rsatkichlarga omillar ta'sirini baholash, tahliliy ma'lumotlarni umumlashtirish va o'rganish borasida turli tuman usul va vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, bugungi kunda mazkur vosita va usullardan amaliyotda keng foydalanilib kelinmoqda.

Iqtisodiy tahlil boshqaruv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida boshqariladigan ob'ektda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni miqdor va sifat jihatdan baholashni ta'minlaydi; boshqaruv sub'yekti tomonidan salbiy va ijobiy hodisalarning rivojlanish tendentsiyalarini o'z vaqtida aniqlashga yordam beradi, bu o'z navbatida salbiy jarayonlarning oldini olish, ijobiy jarayonlarni yanada jonlantirish imkoniyatini beradi.

Iqtisodiy tahlil subyektlari boshqariladigan ob'ektning mulkdorlari va rahbarlari, xo'jalik yurituvchi subyekt bilan iqtisodiy hamkorlikdan bevosita va bilvosita manfaatdor bo'lgan tashqi foydalanuvchilar hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning axborot bazasini turli xil tashqi axborot manbalarini va shuningdek, korxonaning ichki axborot massivlarini o'z ichiga olgan boshqaruv ob'ekti faoliyati to'g'risidagi butun axborot tizimi tashkil qiladi.

Tahlilni amalga oshirish borasidagi uslubiy yondashuv analitik tadqiqotni o'tkazish tartibi, muayyan obyekt ustida ishlashning analitik usullaridan foydalanish qoidalari va ketma-ketligini belgilab beradi. Uslubiy yondashuvning maqsadi tahlilning barcha bosqichlarida tahliliy jarayonlarni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ular ob'ekt faoliyatiga boshqaruv ta'sirini yaxshilashning mumkin bo'lgan usullarini aniqlash va belgilashga yordam berishi lozim bo'ladi.

Adabiyotdagi mavjud tushunchalar va yondashuvlarni o'rganish asosida iqtisodiy tahlilni amalga oshirishning uslubiy yondashuvi borasida quyidagi fikrni ilgari suramiz: "qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishga uslubiy yondashuv muayyan bir maqsadga erishish borasida tahlilni amalga oshiruvchi sub'yekt tomonidan qo'llaniluvchi usul va vositalar, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tizimi majmuini ifoda etadi".

Ilmiy izlanishlar olib borish natijasida qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholash va tahlil qilish borasida mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi.

Uslubiy yondashuvning eng muhim jihati – bu iqtisodiy rivojlanishning erishilgan darajasi, mavjud ishlab chiqarish va bozor sharoitlari, qishloq xo'jaligi biznesini rivojlantirishning mumkin bo'lgan istiqbollari asosida boshqaruv sub'yekti tomonidan belgilanadigan tahliliy ishlarning maqsadli belgilanishi hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligi biznesini tashkil etish samaradorligi darajasini aniqlash va korxonaning bozorda barqarorligini oshirishning mumkin bo'lgan usullarini belgilashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Avvaldan mavjud yondashuvlardan farqli o'laroq, biz tomondan ishlab chiqilgan va taklif qilinayotgan yondashuvni qo'llash salohiyatning tarkibiy qismlarini tahlil qilish va iqtisodiy salohiyatni ikki yo'nalishda – holat darajasiga (yuqori, o'rta, past) va qiymatga qarab aniqlash imkonini beradi.

Taklif etilayotgan yondashuvdan qishloq xo'jaligi korxonalarining amaliy faoliyatida qo'llash bir qator o'ziga xosliklarga egaligi bilan ajralib turadi:

- qishloq xo'jaligi korxonalarini iqtisodiy salohiyatining mazmuni to'rtta tarkibiy qism sifatida taqdim etiladi: ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv va bozor salohiyati;
- korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish analitik ishlarning ketma-ket beshta bosqichi shaklida amalga oshiriladi, bu yerda salohiyat tarkibiy qismlarini baholashning analitik jarayonlari ajratib ko'rsatiladi;
- qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati tarkibini o'rganish tahlil uslubiyotida yer, biologik, moddiy va mehnat tarkibiy qismlarini baholash ko'rsatkichlarini taklif qilish imkonini beradi;
- qishloq xo'jaligi korxonalarining holati va rivojlanishining moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish korxonalarining moliyaviy salohiyatini tahlil qilish uslubiyotini ishlab chiqish va asoslash imkonini beradi;
- qishloq xo'jaligi korxonalarida mavjud tashkiliy tuzilma va boshqaruv jarayonini o'rganish bizga zarur tahliliy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirgan holda korxonalarining boshqaruv salohiyatini tahlil qilish modelini ishlab chiqish va taklif qilish imkonini beradi;
- muammoli-analitik yondashuvni qo'llash iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismlarini baholashning ierarxik modelini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qildi, bu bozor salohiyatining o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi, shuningdek uni baholashning miqdoriy va sifat mezonlarini belgilaydi.

Taklif etilayotgan uslubiy yondashuvda tahliliy ishlarning axborot bazasiga, buxgalteriya hisobi va tahlil jarayonini takomillashtirish va foydalanilayotgan ma'lumotlarning sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Bozor raqobati kuchayib borayotgan zamonaviy sharoitda boshqaruv sifati jarayonlari birinchi o'ringa chiqadi, ularni baholash to'g'ridan-to'g'ri axborot ma'lumotlarining o'z vaqtida va ishonchliligiga bog'liq bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining boshqaruv salohiyati modelini ishlab chiqishda boshqaruv tizimining sifati tarkibiy qismlar: ishlab chiqarish jarayonlari, kredit siyosati, mehnat munosabatlari, moliyaviy jarayonlar prizmasi orqali namoyon bo'ladi.

Boshqaruv sifatini tizimli monitoring qilish imkoniyatini ta'minlash uchun biz ushbu tarkibiy qismlarga muvofiq korxonada biznes-jarayonlarni tashkil etish darajasini aks ettiruvchi ishlab chiqarish va moliyaviy ko'rsatkichlarning zarur ro'yxatini o'z ichiga olgan korxonada ichki rejalashtirish va tahliliy hujjatlarni ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Qishloq xo'jaligi korxonasi salohiyati ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlilini o'tkazish uchun vaqti-vaqti bilan hududlar kesimida bozorlardagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirish talab qilinadi.

1-jadval

Qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy salohiyatining tuzilmasi¹⁰⁰

Salohiyatning tashkil etuvchisi	Salohiyatni shakllantiruvchi omillar	Salohiyatni tavsiflovchi ko'rsatkichlar
Ishlab chiqarish salohiyati	<ol style="list-style-type: none"> Ishlab chiqarish resurslarining mavjudligi va holati: yer, chorva mollari, asosiy va aylanma mablag'lar, mehnat resurslari; Yer, asosiy va aylanma mablag'lar va ishchi kuchidan foydalanish holati va darajasi; Resurslarni yangilash darajasi va mehnatni rag'batlantirish tizimi 	<ol style="list-style-type: none"> Qishloq xo'jaligi yerlari va asosiy podaning mahsuldorligi va rentabelligi; Yosh hayvonlar, xomashyo va materiallarning qaytimi; Moddiy asosiy vositalarning rentabelligi va qaytimi; Mehnat unumdorligi, bir xodimga to'g'ri keluvchi o'rtacha sof daromad
Moliyaviy salohiyat	<ol style="list-style-type: none"> Kompaniyaning moliyaviy barqarorligi; Moliyaviy xatar darajasi; Kapitaldan foydalanish samaradorligi; Investisiya siyosati va moliyaviy boshqaruv vositalari 	<ol style="list-style-type: none"> Moliyaviy mustaqillik koeffisienti; Moliyalashtirish koeffisienti; Sof aktivlarning rentabelligi; Moliyaviy dastak samarasi
Boshqaruv salohiyati	<ol style="list-style-type: none"> Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi; Biznesni axborot bilan ta'minlash holati va darajasi; Biznes jarayonlarini boshqarish sifati 	<ol style="list-style-type: none"> Ishlab chiqarish jarayonlari, kredit siyosati, mehnat munosabatlari, moliyaviy jarayonlarni boshqarish ko'rsatkichlari; Boshqaruv salohiyatining integral ko'rsatkichi
Bozor salohiyati	<ol style="list-style-type: none"> Korxonada o'lchami; Moddiy-texnik bazaning holati va qo'llaniluvchi ishlab chiqarish texnologiyalari; Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kreditlash va moliyalashtirish darajasi va shartlari; Bozorda raqobatbardoshlik darajasi 	<ol style="list-style-type: none"> Miqdoriy baholash mezonlari: tushum, daromad, sof daromad, sof foyda, sof aktivlar; Sifat baholash mezonlari: foyda me'yori, sof daromad darajasi, tushum sifati, barqaror rivojlanish sur'ati, korxonaning raqobatbardoshligi; Bozor salohiyatining integral ko'rsatkichi

¹⁰⁰ Muallif ishlanmasi.

Tahliliy ma'lumotni qayta ishlash yo'llari va usullarini tanlash, uni umumlashtirish, ma'lumotlarning to'liqligi va taqdim etish davriyligi boshqaruv sub'yekti tomonidan ishlab chiqarishning o'ziga xos sharoitlari, professionallik darajasi va korxonaning moliyaviy boshqaruv tizimini tashkil etish darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishda tavsiya etilgan uslubiy yondashuvdan foydalanish salohiyat tarkibiy unsurlarining darajasi va kattaligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashni, ularni tizimli baholash va monitoringini talab qiladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari va qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatining mazmunini o'rganish korxonalarining holati va salohiyatidan foydalanishga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlashtirishga imkon beradi (1-jadval).

1-jadvalda keltirilgan omillarni tahlil qilish va ular asosida qishloq xo'jaligi korxonasining iqtisodiy salohiyati tarkibiy qismlarining tavsiya etilgan ko'rsatkichlarini baholash mavjud salohiyat darajasini aniqlash va uning har bir tarkibiy qismining qiymatini baholash imkonini beradi.

Xulosa va tavsiyalar.

Moliyaviy salohiyatni boshqarish sohasidagi vaziyatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida quyidagilar taklif qilinadi:

- qishloq xo'jaligi korxonalarining maqbul kapital tuzilmasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- samarali moliyaviy boshqaruv tizimini ishlab chiqish va joriy etish, boshqaruv jarayonida kapitalning o'rtacha solishtirma ulushi va boshqa dastaklar ko'rinishidagi moliyaviy vositalardan foydalanishni faollashtirish.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligining pasayishiga olib keladigan asosiy xatarlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun xavfli bo'lgan tabiiy hodisalar ta'sirida hosildorlikning yo'qolishi (o'lishi) yoki qisman yo'qolishi va chorvachilikning kamayishi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining uchun xos bo'lgan va umuman olganda korxonalar iqtisodiy salohiyatining darajasi va hajmiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- asosiy vositalarning ma'naviy va jismoniy eskirish darajasining oshib borishi;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy, logistika va axborot resurslari bozorlariga, tayyor mahsulotlar bozorlariga kirishini qiyinlashtiruvchi bozor infratuzilmasining qoniqarsiz rivojlanish darajasi;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining erdan foydalanish va erga egalik qilish masalalari.

Ishlab chiqilgan yondashuv nafaqat qishloq xo'jaligi sohasida, balki xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida ham korxonalar salohiyatini boshqarish sohasidagi tahliliy qarorlarni asoslash vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Salohiyatni baholashning moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilishning taklif etilayotgan usullaridan iqtisodiy tahlil nazariyasida tahliliy echimlarning iqtisodiy mazmunini tushunishda ham keng foydalanish mumkin.

Adabiyotlar/ Jumezamypa/ Reference:

Akramov G. (2024) HUDUD MOLIYAVIY SALOHIYATINI BOSHQARISHNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – T. 2. – №. 1. – C. 18-26.

Muxametov Abubakr Baboyevich, & Matkuliyeva Sanobar Ismailovna. (2024). QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH SALOHIYATINI TAHLIL QILISH. *Miasto Przyszłości*, 49, 597–611. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/3945>

Xakimov, T. (2024). QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATI VA UNING TASHKIL ETUVCHILARI. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 2(3), 167–175. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss3-pp167-175>

Xasanov B.A., Xashimov A.A., Muxametov A.B., Abduvoxidov A.A., Urazmatov J.M., G'.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D. B. Eshpulatov (2023) *Moliya va soliqlar. darslik / // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi".*

Yuldashev Fozil Turapovich (2023) *"Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari"* mavzusida 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati // T.

Абдувахидов А.А. и др. (2022) АГРАР СЕКТОРДА ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЙЎЛЛАРИ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMİY JURNALI. – Т. 2. – №. 10. – С. 9-12.

Буранова Л. (2020) *Финансовый потенциал региона: понятие, сущность и значение для развития Сурхандарьинской области //Экономика и инновационные технологии. – №. 4. – С. 204-213.*

Зулунова Ф.А. (2008) *Корхоналар молиявий салоҳият таҳлилини такомиллаштириш. //Диссертация.//Самарқанд. - 216*

Кузубов А.А., Денисенко И.А. (2024) *Теоретические аспекты анализа использования основных средств сельскохозяйственных предприятий // RJOAS. 2017. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/teoreticheskie-aspekty-analiza-ispolzovaniya-osnovnyh-sredstv-selskohozyaystvennyh-predpriyatiy (дата обращения: 30.06.2024).*

Нурмухаммидова М.Х. и др. (2021) *ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИНГ ҲОЗИРГИ БОСҚИЧИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСЛАРИ //ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMİY JURNALI. – Т. 1. – №. 6. – С. 401-417.*

Пардаев М.К. (2002) *Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида иқтисодий таҳлилнинг назарий ва методологик муаммолари //Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. Т.: Банк молия академияси. - 22-276*

Плаксин В.И., Полещук А.С. (2013) *Финансовый потенциал Белорусии его оценка и использование. Экономический журнал Белорусии. - №3. -с.87-97*

Сухова Л.Ф. (2016) *Финансовый потенциал предприятия: понятие, сущность, методы измерения. //Финансовая аналитика проблемы и решения. 12. - с2-9*

Щуков В.Н. (2002) *Экономический потенциал регионов России и эффективность его использования: учебное пособие //Иваново: ИГТА, –58 с. – 2002.*